

Zohid JUMANIYOZOV,

Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti dekani filologiya fanlari nomzodi, dotsent

E-mail: zohid@urdu.uz

Yulduz MASHARIPOVA,

Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: yulduz.m@urdu.uz

Tel: (93) 758 77 79

Xorazm Ma'mun universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD Oybek Qalandarov taqrizi asosida

LINGUOCULTURAL APPROACH TO TRANSLATION

Annotation

Language units are considered to be the factor causing the linguocultural approach to translation. Only these language units are lexicons that have a cultural phenomenon. It is known that the basis of translation is words and text. Therefore, they may have language units that reflect the culture. And this case creates an opportunity to learn the issues of the translation and linguocultural studies simultaneously. And comparison of the language units which belong to the different national cultures on the base of the translation forms the concept of the linguocultural approach to the translation.

Key words: Source language, target language, linguocultural units, component analysis, phraseological fund of the language.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ ПОДХОД К ПЕРЕВОДУ

Аннотация

Фактором, обусловившим лингвокультурологический подход к переводу, стали – языковые единицы. Только эти языковые единицы являются лексикой, обладающей культурным феноменом. Как известно, основой перевода является слово, текст. Следовательно, они также могут иметь языковые единицы, которые отражают в себе культуру. Именно это обстоятельство создает почву для столкновения перевода и лингвокультурологии. В этом процессе посредством перевода осуществляется сопоставление языковых единиц, принадлежащих разным народным культурам, и в результате формируется понятие лингвокультурологического подхода к переводу.

Ключевые слова: Язык оригинала, язык перевода, лингвокультурное единство, компонентный анализ, фразеологический фонд языка.

TARJIMAGA LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV

Annotatsiya

Tarjimaga lingvokulturologik yondashuvga sabab bo'luvchi omil bu – til birliklari hisoblanadi. Faqat bu til birliklari madaniy fenomenga ega bo'lgan leksikalardir. Ma'lumki, tarjimaning asosini so'z, matn tashkil etadi. Shunday ekan, ular o'zida madaniyatni aks ettirgan til birliklariga ega bo'lishi ham mumkin. Aynan mana shu holat tarjima va lingvokulturologiyaning to'qnashuviga zamin yaratadi. Bu jarayonda tarjima vositasida turli xalq madaniyatlariga tegishli bo'lgan til birliklarining o'zaro qiyosi amalga oshiriladi va natijada tarjimaga lingvokulturologik yondashuv tushunchasi shakllanadi.

Kalit so'zlar: Asliyat tili, tarjima tili, lingvomadaniy birlik, komponent tahlil, tilning frazeologik fondi

Kirish. Badiiy tarjima bilan shug'ullanadigan tarjimondan nafaqat xorijiy tilni puxta egallashi, balki shu til tarixi, madaniyati, dunyoqarashi, dini haqida chuqur bilimga ega bo'lishlik ham talab etadi. Chunki, tarjimonlar ba'zi matnlarda muammolarga duch kelishlari mumkin. Bu qiyinchiliklar asosan matnlar tarkibida ma'lum bir madaniyatda mavjud bo'lmagan ma'lum so'zlarning ma'nosini tarjima tilida uchramasligi holatida kuzatilib, uni qanday o'girish masalasi muammodir. Shunday ekan, avvalo tarjimon uchun muammo tug'diruvchi madaniy til birliklari haqida fikr yuritish lozim bo'ladi. Bunday til birliklar lingvokulturologiya fanining predmeti hisoblanadi. Va aynan ular tarjimada lingvokulturologik yondashuvga sabab bo'ladi. Demak, lingvokulturologiyaning predmeti – bu til birliklari sanalgani holda, ular lingvokulturologik birlik deb ham nomlanishi mumkin hamda bir paytning o'zida bir necha semiotik tizimlarga tegishli bo'lishlari mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rus tilshunosi V.A. Maslovaning “Lingvokulturologiya” qo'llanmasidagi lingvokulturologik tadqiqotning asosini tashkil etuvchi lingvomadaniy til birliklari haqidagi fikrlariga tayangan holda lingvokulturologik birliklar qatoriga muqobilsiz leksika va lakunalar, mifologiyalashtirilgan til birliklari, tilning paremiologik (maqol va matallar) fondi, tilning frazeologik fondi, o'xshatishlar, ramzlar, stereotiplar, metaforalar va obrazlar, tillarning stilistik qatlami, nutqiy muomala, nutq etiketi, pretsedent birlik kabilar kiritilib, ular muayyan etnosga xos bo'lgan olamning lisoniy manzarasining ilmiy talqinini yaratish uchun xizmat qiladi [1].

Mazkur maqolada yuqorida nomlari qayd etilgan ba'zi lingvokulturologik birliklarning tarjimada kelgan misollari asosida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Shuningdek, maqolada Q. Musayevning tilning frazeologik fondi yuzasidan turli xalqlar nutqida qo'llaniladigan iboralarning o'xshash va farqli jihatlariga haqida yuritgan fikrlari borasida ham bir qancha misollar tahlili amalga oshiriladi. Unga ko'ra madaniyati va frazeologik ma'nolariga ko'ra o'xshash, grammatik qurilish jihatlariga nisbatan o'zaro yaqin bo'lgan ko'pchilik muqobil variantlar leksik tarkib tomondan bir-birlaridan batamom farq qilinadi hamda ularning ko'pchiligi shaklan milliy, mazmunan baynalmilal bo'lishi mumkin. Bunda shakli bilan ular o'zlarining muayyan milliy tilga mansubliklarini tasdiqlasalar, mazmuni bilan jahon madaniyati va sivilizatsiyasi mahsuli ekanliklarini namoyon qiladilar [2].

Ma'lumki, tilning frazeologik fondi ham lingvokulturologik birliklar tarkibiga kiradi. Shunday ekan, asliyat matni tarkibida qo'llanilgan frazeologik birliklarning tarjima matnida qay shaklda qayta gavdalanishi o'zida tarjimaning lingvokulturologik jihatini aks ettiradi. Natijada tilning frazeologik fondi asosida ham turli xalqlar nutq madaniyatida qo'llaniladigan frazeologik birliklarning ma'nolariga ko'ra o'xshash va farqli jihatlarini o'rganish mumkin hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Lingvokulturologik o'z ifodasiga ko'ra juda rang-barangdir. Ular so'z, so'z birikmasi, matn abzasi, she'r yoki bir necha uzunlikdagi matn bilan ham berilishi mumkin. Tarjimaga lingvokulturologik yondashuv asosini o'rganish, tahlil qilish uchun komponent tahlil metodining ahamiyati beqiyosdir. Bu borada Mildred L. Larson tilning ma'lum sohalari komponent tahlil qilishga to'g'ri kelishi haqida shunday degan: “Bu tahlil usuli qo'llaniladigan sohalari uchun juda

foydali bo'lishi mumkin. U asosan so'zlarning umumiy va qarama-qarshi xususiyatlariga ko'ra bir-biri bilan aloqasi bo'lganida juda muhim hisoblanadi. Komponent tahlilni amalga oshirish uchun tarjima qilinayotgan birliklar orasida ulkan ziddiyat bo'lishi kerak. Ya'ni, asliyat matni birligining tarjima tilida muqobili topilishi mushkul, amrimahol bo'ladi. Bunday birliklarga realiya misol bo'la oladi. Chunki ular faqat ma'lum bir hudud, xalq madaniyatini aks ettiruvchi madaniy birliklar hisoblanadi." [3].

Komponent tahlil haqida gap borganda shuni aytish joizki, leksik qatorlar vositasida so'zlarning ma'no komponent tahlilini amalga oshirish oson kechadi. Bunda turli tizimlarga tegishli bo'lgan leksik to'plamlar jadvallarga joylashtiriladi. Natijada paydo bo'ladigan jadval ustuni so'zlar orasidagi farqni o'rganuvchi ma'no komponent tahlilini shakllantiradi [3].

Demak, turli til tizimlari leksik birliklarining qiyosi aynan komponent tahlil metodi asosida tahlil qilib, bunda so'zlarni jadval asosida qiyoslash tahlil uchun ancha qulaylik yaratadi. Mazkur maqolada turli xalq madaniy til birliklari tarjima matni asosida lingvokulturologik tadqiq qilinib, ularning asliyat va tarjima tilidagi qo'shimcha ma'no izohlari lug'atlar yordamida qiyosiy tahlil qilinadi.

Tahlil va natijalar. Mazkur maqolada leksik birliklarning qiyosiy lingvokulturologik tahlili Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani va uning ingliz tiliga Kerol Yermakova tomonidan "Abdulla Qadiri. Days Gone By" deb, Mark Riz tomonidan "Abdullah Qodiriy. O'tkan kunlar (Bygone Days)" deb nomlangan hamda I.M. Tukhtasinov, O.M. Muminov, A.A. Khamidovlar tomonidan "Abdulla Qodiriy. The Days Gone By" deb o'g'irilgan tarjima variantlari asosida amalga oshiriladi. Misol uchun, Abdulla Qodiriyning asliyat matnida "Sharti ketib, parti qolg'an" iborasi darvozaga nisbatan qo'llanilgan [4]. Bu ibora o'zbek tilida "eski, kuch-quvvati ketgan" ma'nolarini anglatib, matndan asliyat o'quvchisi uchun darvozaning juda eski ekanligi ma'lum bo'ladi. Ammo o'zbek tiliga xos bunday iboraning ingliz tilida uchrashi amrimahol. Tarjimaning aynan shu nuqtasida tarjimonlar tillar orasidagi madaniy birliklarning tafovutlari sababli muammolarga duch keladilar va navbatdagi tarjima matnlari tahlili orqali tarjimonlarning mahoratiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Asliyatdagi "Ko'rimsiz, chirk bosib qorayg'an, juda ko'b xizmat qilib keksaygan, ochib-yopqanda anvoi – turlik dodi-faryod qiladirdg'an, bunda sanalg'an sifatlarini bir yerga jamlab natija chiqarg'anda "sharti ketib, parti qolg'an" bir darboza ..." matni "Passing through the unpretentious, long-suffering, time-blackened gates which creak and squeak as you open them, dilapidated and time-worn as history itself ..." (Kerol Yermakova) [5], "Broken down, mottled with handprints, rickety after years of labor, the main gate screeches and moans as if calling for help; in short, if we tried to classify this long-suffering gate, we might put it in the "ancient as history itself" category." (Mark Riz) [6], "Going into a cheesy, blackened by time, dilapidated from years of service, creaking and groaning while opening and closing its doors, as if to bring together all of the above, just worn out, like history itself, the long-suffering gate ..." (I.M. Tukhtasinov, O.M. Muminov, A.A. Khamidov) [7] deb tarjima qilingan. Albatta bu yerda tarjimonlarga ibora sababli madaniyatlar orasidagi tafovutni bartaraf etish jarayoni biroz mashaqqat tug'dirgan bo'lsa ajab emas. Chunki matn boshida eski darvozaning metaforik izohi ham keltirilgan bo'lib, eski darvozaning bu sifatlarini asliyat bo'yoqdorligini, jozibasini saqlagan holda tarjima tiliga yetkazish ancha zaxmat talab etishi shubhasiz. Shunga qaramasdan tarjimonlar iboraning muqobilini ibora bilan emas, balki so'z birligini bilan o'g'irishga erishganlar va turli madaniyatlar qiyosida vujudga kelishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarning oldini olishgan. Mark Riz tarjima tiliga tushunarliroq bo'lishi uchun "we might put it in the "ancient as history itself" category" deb qo'shimcha izoh ham keltirgan va bu yerda eski darvoza ta'rifining asliyatdagi ibora bilan berilgan sifatini o'quvchiga yetkazishga harakat qilgan va uddalagan.

Tarjima qilishdagi eng katta muammo madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni ajratishdir. Muayyan madaniyatga mansub aholi biror narsaga o'z dunyoqarashidan kelib chiqib qaraydi. Bir-biriga ekvivalentdek ko'rinadigan so'zlar lingvomadaniy jihatdan qaralganda aslida ekvivalent bo'lmasliklari mumkin. Misol uchun, Amerikada "qo'y" so'zini – o'ylamasdan ish qiladigan, kamgap, bosiq insonlarga nisbatan qo'llashadi [8].

O'zbek tilida esa "qo'y" so'zi ijobiy bo'yoqqa ega va u yuvoshlik, muloyimlik, mo'min-qobillikni ifodalaydi. Insonlarga nisbatan asosan nutqda ushbu so'zning "qo'ymijoz" shakli qo'llanilib, o'zbek tilida "yuvosh, muloyim, mo'min-qobil" degan ma'noni anglatadi. Ushbu so'zning o'zbek va ingliz tilidagi qiyosini Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanining ingliz tiliga tarjima variantlari misolida keltirish mumkin. Bunda asliyat matnida kelgan "qo'y kabi yovvosh" iborasi turli tarjimonlar tomonidan tarjima matnida "as meek as a lamb" (Kerol Yermakova), "as harmless as a lamb" (Mark Riz) va "humble, like a sheep" (I.M. Tukhtasinov, O.M. Muminov, A.A. Khamidov) kabi bir qancha muqobil variantlari bilan o'g'irilgan. Bunda har uchala tarjima turli xil ko'rinishda kelgan bo'lsada, asliyatga xos bo'lgan o'xshatish jozibasini o'zida saqlagan holda unga muqobil bo'la olishgan. Shuningdek, quyidagi asliyat matnida "qo'ymijoz" so'zining ishlatilishiga guvoh bo'lishingiz mumkin: "Qutidordek qo'ymijoz bir odamning bunday zo'r ishka oralashqanlig'iga aql ham bovar qilmas edi." Tarjima matnlarida u bir qancha muqobillari orqali o'g'irilgan: "Indeed, it was inconceivable that such a peaceful man as Kutidor could be involved in such a matter!" (Kerol Yermakova), "It is impossible to even fathom how such a docile lamb such as Qutidor could have a hand in such violence." (Mark Riz), "It was unbelievable, that such kind of a generous man like Qutidor did it." (I.M. Tukhtasinov, O.M. Muminov, A.A. Khamidov). Bunda "qo'ymijoz" so'zi "a peaceful man", "a docile lamb", "a generous man" kabi o'xshatishlar bilan izohlanagan. Avvalo ushbu o'xshatishlar tarkibida kelgan so'zlar ma'nosi bilan tanishib chiqsak. Ingliz tilida "peaceful" (calm and quiet) – "bosiq, yuvosh", "generous" (kind, friendly, and helpful) – "mehribon, do'stona, yordamga shay" kabi sifatlarni anglatgan holda shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Har ikkala sifat ham tarjima matnida muqobil variant bo'la olgan, lekin asliyat matnidagi kabi o'xshatishning bo'yoqdorligi, jozibasi saqlanmagandek go'yo. Yana bir tarjima matni muqobili asliyat matni jozibasini ko'proq aks ettirgandek. Bunda "qo'ymijoz" so'zi "a docile lamb" o'xshatishi orqali berilgan. Ingliz tilida "docile" sifati "well-behaved, quiet, and easy to control", ya'ni, "yaxshi tarbiya ko'rgan, yuvosh, bosiq va boshqarish oson bo'lgan" degan ma'noni bildiradi. Tarjima matnida bu sifat "lamb" (a young sheep), ya'ni, "qo'y" so'zi bilan birga kelgan. Inglizlar nutqida shaxsga nisbatan "docile" sifati bilan to'g'ridan-to'g'ri "lamb" so'zining qo'llanishi kuzatilmasada, qo'yning yuvoshlik belgisi inglizlar uchun ham begona bo'lmagan tushuncha ekanligini quyidagi o'xshatishdan anglash qiyin emas: "like a lamb – quietly and without any argument". Demak, bu o'xshatish tarjima matni o'quvchisi uchun asliyatda kelgan bu o'xshatishning ma'nosini tushunishi uchun yengillik yaratishi shubhasiz.

G'. Salomov badiiy tasvir vositasi sifatida "oy" dan foydalanish borasida turli xalqlarda har xil fikrlar mavjudligi haqida quyidagicha yozgan: "Sharq xalqlarining og'zaki ijodi, mifologiyasi va paremiologiyasiga xos umumiylik shundaki, masalan, oy go'zal yor, mahbuba siymosining latifligi, xushro'yligini ifodalab keladi." [9; 80]

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanining asliyat matnida Kumushga shunday ta'rif berilgan: "to'lg'an oydek g'uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqg'a aylangan-da, kimdandir uyalg'an kabi". Ushbu parchada Kumushning yuzi "to'lg'an oydek" deb "oq yuzli, chiroyli" qiz ekanligi tasvirlanib, u bu sifatleri bilan to'lg'an oyna qiyoslanmoqda. Kerol Yermakova bu jumlaning: "A bashful blush lightly flushes her clear, carefree face, round and luminescent as the full moon ..." deb tarjima qilgan va "as the

full moon” shaklida asliyatga muqobil variant bergan bo‘lsa, Mark Riz bu matnni: “her face like a full moon, pearly white, slightly blushing, as if embarrassed by someone’s presence ...” deb o‘girgan va “like a full moon” tarzida muqobil berish bilan vaziyatdan chiqqan.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo‘lagini aks ettiruvchi so‘zlar, frazeologik birliklar, so‘z birikmalari, gaplar, paremiyalar, matnlar kirar ekan, tarjimadaga lingvokulturologik yondashuvning asosini ham aynan ular tashkil etishini ta’kidlash lozim. Shuningdek, tarjimaning madaniyatlararo o‘xshash va tafovutli jihatlari ham aynan shu lingvokulturemalar tarjimasida kuzatiladi. Natijada lingvokulturemalar o‘zida nafaqat madaniy, balki lingvistik, etnopsixologik va ekstralingvistik omillarni ham mujassamlashtirishiga guvoh bo‘lish mumkin. Chunki, lingvokulturemalar tarkibi belgi-ma’no-tushuncha-predmetlardan tashkil topib, ular inson madaniyati va tilining uyg‘unlashuvi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Маслова В.А. Лингвокультурология. Введение. Учеб. пособие. Москва. Юрайт. 2018. 11-14 стр.
2. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Darslik. T.: O‘zbekiston Respublikasi FA. “Fan” nashriyoti, 2005. – B. 198.
3. Mildred L. Larson. Meaning-based translation: a guide to cross-language equivalence. -2nd ed. Copyright 1998 by University Press of America, Inc. Lanham, New York, Oxford. 90, 88 p.
4. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. Roman. “Sharq”. Toshkent 2018. – B. 27.
5. Abdulla Qadiri. Days Gone By. Translated by Carol Ermakova. Karimov foundation. Nouveau Monde editions, 2018. Paris. 31 p.
6. Abdullah Qodiriy. O‘tkan kunlar (Bygone Days). Translated by Mark Reese. Published by Muloqot Cultural Engagement Program. Nashville TN. 2018. 47 p.
7. Tukhtasinov I.M., Muminov O.M., Khamidov A. Abdulla Qodiriy. The Days Gone By. Novel. – T.: «Mashhur-Press», 2017. – B. 29.
8. I. G‘ofurov, O. Mo‘minov, N. Qambarov. Tarjima nazariyasi. Tafakkur Bo‘stoni. – Toshkent, 2012. - B. 30-31.
9. G‘. Salomov. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent. O‘qituvchi. 1983. – Bet. 80-81.